

Toshkent Botanika bog'i xalqaro tashkilotga a'zo bo'ldi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti huzuridagi akademik F.N. Rusanov nomidagi Toshkent Botanika bog'i 2021-yilning mart oyida, Xalqaro Fanlar akademiyasi assotsiatsiyasi Botanika bog'lari kengashiga a'zolikka kiritish uchun ma'lumotlar taqdim etgan edi.

Toshkent Botanika bog'i Xalqaro Botanika bog'larini himoya qilish (Botanic Gardens Conservation International) tashkilotiga a'zolikka qabul qilindi. Bu jahon botanika bog'lari bilan ilmiy-tadqiqot sohasidagi hamkorlik, o'zaro tajriba almashinuv va salohiyatli ilmiy kadrlar yetishtirish doirasida qo'yilgan dastlabki katta qadam sifatida baholanadi.



Botanic Gardens Conservation International tashkiloti 1987-yilda jahon miqyosida o'simliklarni himoya qilish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, ayni paytda jahoning 100 dan ortiq mamlakatlari botanika bog'larini o'zida jamlagan. Mazkur tashkilot noyob va yo'qolib borayotgan o'simlik turlarini saqlash, introduktsiya qilish, ko'paytirish, biohilma-xillilikni saqlashga jamoatchilik e'tiborini jaib qilish va botanika bog'larida ilmiy salohiyatni yanada oshirish bo'yicha faoliyat yuritadi.

Ma'lumot o'rnila, O'zR FA Botanika instituti huzuridagi akademik F.N. Rusanov nomidagi Toshkent Botanika bog'i" davlat ilmiy muassasasi sifatida 1950-yilda asos solingan bo'lib, undagi 3 ta ilmiy laboratoriya 9 ta ilmiy darajaga ega ilmiy xodimlar faoliyat yuritmoqda. O'tgan bir yil mobaynida 2 ta ilmiy loyihibalar doirasida ilmiy xodimlar tomonidan 2 ta monografiya va 17 ta xalqaro jurnallarda maqolalar chop etilgan. Shuningdek, bog'da 2450 dan ortiq o'simlik turlari mavjud bo'lib, ulardan 100 dan ortiq turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan noyob va yo'qolib borayotgan hamda endemik turlardir.

Kelgusida xalqaro hamkorlik natijasida O'zbek-Xitoy piyozlar bog'ining (Global Allium Garden in Tashkent center) mantiqiy davomi sifatida yovvoyi lolalar va shirachlar bog'ini tashkil etish rejalashtirilgan.